

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINI BOYITISH USULLARI

*Toshkent shahar Olmazor tumani 11-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Akromova Komila Shoqosim qizi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada dars mashg'ulotlarini o'quvchilarning yoshi va imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish hamda zamonaviy innovatsion usullardan foydalanish jarayonida kafolatlangan bilimlarni bera olish muhimligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat ta'lim standarti, pedagogik texnologiya, samaradorlik.

Respublikamiz xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog'lom, qobiliyatli, o'z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug' maqsadni ro'yobga chiqarish xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha o'qituvchilarning o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish zamonaviy pedagogik usullarni qo'llab darsslarni samarali tashkil etishni talab qiladi. O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergen ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergen bilimni

amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi biz boshlabg'ich sinf o'qituvchilari oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir daqiqadan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur.

O'yinlar bolalarda jamoatchilikni his etish, intizomli bo'lish, jasur, qat`iyatli bo'lish, qiyinchiliklarni yenga bilish kabi sifatlarning tarkib topishida yordam beradi. Bola kattalarning kundalik hayotiy faoliyatidagi yumushlarni o'yin orqali bajarishga intiladi. Garchi bolalar o'yinlari mazmunan kattalar faoliyatining bir ko'rishini bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Birinchidan, bola o'yinni o'z xohishi bilan erkin va ijodiy bajaradi. Bu o'yinlar emotsional bo'lib, bolani o'ziga rom qilib oladi. Bola o'yinga qiziqib ketadi, zavqlanadi, o'rtoqlik hissi kuchayadi. Bolalar o'yinlari mazmuniga ko'ra o'yinchoqli, harakatli va didaktik turlarga bo'linadi. Bu o'yinlarning barchasi bolalarni faoliyat yuritishga chorlaydi. Didaktik o'yinlar esa bolaga ta'lim berishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida darslarning tashkil etilishgi boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchi har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi, darsda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat

ko'rsatib yurgan bolaning birdan mакtabning ichki qonun-qoidalariiga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik mакtab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o'yin elementlarini kiritishimiz va undan ta'lif-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim.

Bugun mакtabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o'rinda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati juda kattadir. Tasavvur qiling, bola ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin mакtab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha - kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lif oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab o'qituvchi bilan muloqatda bo'ladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o'qituvchi loqayd, mas'uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga "vaqt yo'q" bo'lsa, o'sha o'quvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o'quvchilarga aylanadilar. O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan fidokor o'qituvchi ana shu paytda o'quvchilarni qo'lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi va o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi. Shunday fidokorlik ko'rsata olgan ustozlar qo'lida ta'lif-tarbiya olgan o'quvchilar kelajakda jamiyatimiz taraqqiyotiga o'z xissasasini qo'sha oladigan insonlar bo'lib etisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "Oz'bekiston" 2017 486 bet.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lif va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashryoti, 2013-yil 278 bet.
3. Abduquodusov O. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. - T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2014 -340 b. 4.. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 2004. -102 b.
4. Xodjayev B.X. Innovatsion ta'lif texnologiyalari modulidan ma'ruza matnlari. -T.:2015.
5. Qo'ysinov O.A. va b. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish. - T.: yangi nashr", 2012. - 60 b.